



MUZEY VA MADANIY MEROS OBYEKTLARIDA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH VA TURIZM INTEGRATSIYASINING USLUBIY ASOSLARI

Asadova Nigora

*"Ipak yo'li" turizm va madaniy
meros xalqaro universiteti
ORCID: 0009-0002-7690-5474
nigorichka19@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda muzeylar va madaniy meros obyektlarida ko'rsatiladigan xizmatlarni rivojlantirish hamda ularni turizm sohasi bilan integratsiyalash uslubiy asoslari o'rganilgan. Asosiy e'tibor, madaniy obyektlarning turizmga samarali foydalanilishi, xizmatlar sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlar joriy etish va xorijiy tajribalarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijasida turizm infratuzilmasi, marketing strategiyalari, raqamli texnologiyalar va mahalliy hamjamiyat ishtirokining muhimligi aniqlangan. Xulosa va takliflarda O'zbekiston sharoitida muzey va madaniy meros obyektlari faoliyatini turizm bilan uyg'unlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, madaniy meros obyektlari, muzeylar, xizmatlar, muzey turlari, turizm integratsiyasi.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ УСЛУГ, ПРЕДОСТАВЛЯЕМЫХ В МУЗЕЯХ И ОБЪЕКТАХ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ, И ИНТЕГРАЦИЯ ТУРИЗМА

Асадова Нигора

*Международный университет туризма
и культурного наследия «Шелковый путь»*

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются методологические основы развития услуг, предоставляемых музеями и объектами культурного наследия, и их интеграции с туристическим сектором. Основное внимание уделяется эффективному использованию культурных объектов в туризме, повышению качества услуг, внедрению инновационных подходов и изучению зарубежного опыта. Исследование выявило важность туристической инфраструктуры, маркетинговых стратегий, цифровых технологий и участия местного сообщества. В выводах и предложениях разработаны рекомендации по совмещению деятельности музеев и объектов культурного наследия с туризмом в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: туризм, объекты культурного наследия, музеи, услуги, типы музеев, интеграция туризма.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPMENT OF SERVICES PROVIDED IN MUSEUMS AND CULTURAL HERITAGE SITES AND INTEGRATION OF TOURISM

Asadova Nigora

*"Silk Road" International University of
Tourism and Cultural Heritage*

Abstract. *This study studies the methodological foundations of development of services provided in museums and cultural heritage sites and their integration with the tourism sector. The main focus is on the effective use of cultural sites in tourism, improving the quality of services, introducing innovative approaches and studying foreign experiences. As a result of the study, the importance of tourism infrastructure, marketing strategies, digital technologies and local community participation was identified. The conclusions and proposals develop recommendations for harmonizing the activities of museums and cultural heritage sites with tourism in the conditions of Uzbekistan.*

Keywords: *tourism, cultural heritage sites, museums, services, types of museums, tourism integration.*

Kirish.

O'zbekiston boy tarixiy va madaniy merosga ega bo'lib, bu resurslar turizm salohiyatini oshirishda muhim omildir. Mamlakatimizda joylashgan ko'plab muzeylar, tarixiy yodgorliklar, ziyoratgohlar va arxitektura obidalarini xalqaro miqyosda katta qiziqish uyg'otmoqda. Shu bilan birga, ushbu obyektlarda ko'rsatiladigan xizmatlar darajasi va ularning turizm tizimiga integratsiyasi hali to'liq shakllanmagan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u zamonaviy xizmatlar modelini yaratish, turizmni diversifikatsiyalash va madaniy meros obyektlarining iqtisodiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan. Ishning asosiy maqsadi – muzey va madaniy meros obyektlarida xizmat ko'rsatish tizimini zamonaviy usullar asosida takomillashtirish va ularni turizm bilan uyg'unlashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishdir.

Adabiyotlar sharhi.

Muzeylar va madaniy meros obyektlarini turizm sohasi bilan uyg'unlashtirish O'zbekistonning madaniy salohiyatini namoyon etish va iqtisodiyoti rivojiga xizmat qiladi (Qaror, 2017). Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ushbu obyektlarda zamonaviy xizmatlar joriy etilishi, raqamli texnologiyalardan foydalanish, xalqaro tajribani o'rganish va mahalliy hamjamiyatni jalb etish orqali turizmni rivojlantirish mumkin. Shu bois, madaniy merosni asrab-avaylash bilan birga undan samarali foydalanish strategiyasi dolzarb hisoblanadi. Muzeylar va madaniy meros obyektlarini turizm rivojiga faol jalb qilishga doir davlat siyosati **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev** tashabbusi bilan **2017-yil 7-fevralda qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi" (PQ-4947-sonli Farmon)** (2017) asosida ilgari surilgan. Ushbu hujjatda turizm sohasini rivojlantirish, madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan samarali foydalanish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangandi.

Iqtisodiy adabiyotlarda tarixiy-madaniy turizmga oid masalalar qator olimlar tomonidan o'rganilgan va turlicha ta'riflar berilgan. Gollandiyalik tadqiqotchi Richard Greg (1996) tarixiy-madaniy turizmni "kishilarning o'z madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi ma'lumotlar va tajriba to'plash maqsadida odatiy yashash joyidan uzoqda joylashgan madaniy, diqqatga sazovor joylarga borishi" deya ta'riflaydi. Rossiyalik mutaxassis Kolotova (2016) tarixiy-madaniy turizmni "mamlakatning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olgan an'ana va urf-odatlar, uy xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'langan ijtimoiy-madaniy muhit salohiyati" deya ta'riflaydi. I.T. Frolova esa tarixiy madaniy turizmga global miqyosda xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi omil va vosita sifatida qarab, rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiruvchi uchta: 1) madaniyat va madaniy merosga oid bilimlarni boyitish, 2)

madaniyatni muhofaza qilish va qayta tiklash, 3) madaniyatlar muloqoti kabi yo'nalishlardan iborat deya hisoblaydi (Дмитриевский, 2000). Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda madaniy turizmning asosiy gumanitar funksiyalari, sifatida quyidagilar qayd etiladi: - madaniy-ma'rifiy va ta'limiy; - madaniy muhofaza va saqlash; - aloqalar o'rnatish va tinchlikparvarlik (Ro'ziyev, 2023).


Mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilari I.To'xliyev, R.Amriddinova, Sh.Ro'ziyev, O.Xamidov, N. Ibadullayev F.Aziztoyeva, B. Mamatov va boshqalar boshqalarning ilmiy asarlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlariga doir ko'plab masalalar yoritilgan lekin, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishga oid ayrim masalalar "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil 6/2021 (№ 00056) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> 428 yetarlicha o'rganilmaganligi bois ba'zi muammolar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda (Ro'ziyev, 2023). Xususan, To'xliyev (2001): "Turizm (frans. tour – sayr, sayohat) sayyohlik-sayohat (safari) qilish, faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarga borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmaydigan holda jo'nab ketishi tushuniladi" deb hisoblaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishi mobaynida qiyosiy taxlil va tizimli qiyoslash, ekspert baholash kabi ko'plab usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tarixiy va madaniy turizm - bu faol turizmning eng keng tarqalgan turi. U ta'lim va axborot maqsadlariga yo'naltirilgan barcha turizm turlarini o'z ichiga oladi. Bunday turizm dasturlari insoniyatning turli xil tabiiy tarixiy va madaniy meroslariga qiziqishiga asoslangan. Bunda turistik mahsulot madaniy tajribalar shaklida taklif etiladi. Etnik va etnografik turizmni o'ziga xos tarixiy-madaniy turizm deb hisoblash mumkin, bu o'z maqsadlariga (saqlab qolish, zarar yetkazmaslik) ko'ra, ekologik turizmga yaqin turadi. Mamlakatlar va xalqlar madaniyati turistik qiziqishning asosiy elementlaridan biridir. Turistlarning turli shaharlarga, dunyoning chekka burchaklariga va ularda istiqomat qiladigan xalqlarga bo'lgan qiziqishi sayohat qilishning eng kuchli rag'batlantiruvchisidir. Shuning uchun turizm boshqa madaniyatlar bilan, boshqa xalqlarning tarixi va hayoti bilan, badiiy asarlar bilan tanishishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Boshqa mamlakat tarixi, madaniyati va urf-odatlarini bilan tanishish insonning ma'naviy dunyosini boyitadi.



1-rasm. Muzey va madaniy meros obyektlari turizm sohasida

Manba: muallif ishlanmasi.

Muzey va madaniy meros obyektlari turizm sohasida sayyohlarning tarixiy obidalar, muzeylar, qadimiy shaharlarga tashrifi orqali o'zga xalqlar madaniyati, tarixi va san'atini o'rganishga qaratilgan turizm shaklidir. Uning boshqa dam olish turlaridan farqli jihati mavsumiy emasligi, ya'ni yilning istalgan faslida dolzarb bo'lib, barqaror talabga ega.

Ushbu rasmda, muzey va madaniy meros obyektlarining turizm sohasidagi shakli keltirib o'tilga. Bundan tashqari, O'zbekiston o'zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo miqyosida turizm markazlaridan biri sifatida tan olingan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi qadimiy shaharlardagi obidalar, muzeylar va ziyoratgohlar jahon ahamiyatiga ega.

1-jadval

O'zbekistondagi muzeylar soni va turlari

Muzey turi	Umumiy soni (2024)	Qisqacha tavsif
Tarixiy muzeylar	42 ta	O'zbekiston va dunyo tarixiga oid eksponatlar
San'at muzeylari	17 ta	Rassomchilik, haykaltaroshlik, amaliy san'at namunalarini saqlaydi
Adabiyot va allomalar muzeylari	14 ta	Buyuk adib va olimlarga bag'ishlangan
Arxitektura va arxeologik muzeylar	10 ta	Qadimiy yodgorliklar, qazilmalar
Madaniyat tarixi muzeylari	12 ta	Turli davrlar madaniyatini yoritadi
Zamonaviy muzeylar	8 ta	Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan
Shaxsiy muzeylar (xususiy)	30 dan ortiq	Xususiy kolleksiya va mulk asosida faoliyat yuritadi

Ushbu 2-rasmda jami muzeylar soni (2024): 130 dan ortiq, ulardan 30% dan ko'prog'i Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va Farg'ona hududlarida joylashgan. Tarixiy-madaniy turizm O'zbekistonda yil davomida faol talabga ega bo'lgan, barqaror va istiqbolli yo'nalishdir. Muzeylar esa bu turizmning markaziy komponenti bo'lib, ularning soni va sifati yil sayin oshmoqda. YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar milliy merosni asrash, sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish va global turizm xaritasida O'zbekistonning o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi, jumladan muzeylar, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, mamlakat turizm salohiyatining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tarixiy-madaniy turizm boshqa dam olish turlaridan farqli ravishda mavsumiy emasligi bilan ajralib turadi va yil davomida barqaror talabga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, muzeylar va madaniy meros obyektlarining soni yildan-yilga ortib bormoqda, lekin ularning xizmat ko'rsatish tizimi va turizm tizimiga integratsiyasi hali to'liq shakllanmagan. YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar milliy merosni asrashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, muzeylarning ilmiy, ma'rifiy va iqtisodiy faoliyatini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi, raqamli xizmatlar, interaktiv eksponatlar va mahalliy hamjamiyatni jalb qilish orqali muzeylar turizmga yanada faol jalb qilinmoqda.

Yuqoridagi malumotlar asosida quyidagilarni ta'rif qilishimiz mumkin, xizmat sifatini oshirish va raqamli transformatsiya, ya'ni muzeylarda zamonaviy IT echimlar (raqamli gidlar, virtual ekskursiyalar, mobil ilovalar) joriy etilishi lozim. Bundan tashqari turizm va ta'lim integratsiyasi ya'ni muzeylar ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ilmiy-ma'rifiy dasturlarni amalga oshirsin. Bugungi kunda topm usullardan biri xalqaro tajriba va brendlashuvni taklif qilsak bo'ladi.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Farmon (2017) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Harakatlar strategiyasi" PQ-4947-sonli Farmon 23.11.2017 yil// <https://www.norma.uz>

Qaror (2017) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 939-son qarori. 23.11.2017 yil// <https://www.norma.uz>

Richards, G. (1996) *Cultural Tourism in Europe*. CABI, Wallingford. [1, c. 45]

Ro'ziyev Sh. (2023) "O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini indikativ boshqarish metodikasi" J. Экономика и финансы. <https://cyberleninka.ru/>.

Дмитриевский Ю.Д. (2000) Туристские районы мира. Смоленск, -224 с.

Колотова Е.В. (2016) Рекреационное ресурсоведение: Учеб. пособие. - М.: РМАТС. [1, с. 92-93]

Тухлиев Н., Таксанов А. (2001) Экономика большого туризма. Т.: «Узбекистон миллий энциклопедияси», -208 с. Стр. 13